



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI  
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI  
NAMANGAN VILOYATI FILIALI**

Manzil: 160101, Namangan shahar, Xiva ko'chasi, 1- uy, Tel: 69-233-19-33

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI  
XULOSASI**

**TARTIB RAQAM 01-02/07-2717**

**HUJJAT TURI** Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: "O'ZBEKTELEKOM" AKSIYADORLIK  
JAMIYATIga berildi.**

**STIR: 203366731**

**Obyekt nomi:** Namangan viloyati, Mingbuluoq tumani, Mulkobod mahallasida GPON texnalogiyasi asosida OTAL tashkil etish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi anketa" arizasi

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "O'ZBEKTELEKOM" AKSIYADORLIK  
JAMIYATI**

**STIR: 203366731**

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: JO'RAYEV ISLAMBOY  
QAMBARALIYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 14-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

**Berilgan sana:** 19.03.2025

**Amal qilish muddati:** 19.03.2028

*Ekologik ekspertiza obyektingin ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.*

*Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rivoja etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.*

**Direktor**



**A.Xaydarov**

## **Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari**

- GPON, OTAL qurilmasi o’rnatish ishlari davomida yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga zarar yetkazilishini oldini olish.

- Obyekt hududida har qanday chiqindi turlari yoqilishi qat’iyan ta’qilanganadi.

- Obyekt qurilishi natijasida hosil bo’ladigan tuproqning unumdon qatlami qishloq xo’jaligi yerlarida va qolgan qismi (tuproq, shag’al va qumlar) mavjud kar’erlarni rekultivatsiya qilinishi uchun ishlatilishi kerak.

- Obyekt hududida daraxt kesish qat’iyan man etiladi.

- Obyekt hududida ko’p yillik daraxtlar mavjud bo’lgan taqdirda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863 son- li va 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155 sonli hamda 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46 sonli farmonlari talablariga qat’iy amal qilish.

- Obyekt hududida ko’p yillik daraxt va butalarni saqlab qolish va zarar yetkazmaslik.

- Obyekt faoliyati davomida hosil bo’ladigan chiqindilarni vaqtincha joylashtirish va chiqindilarni hududdan o’z vaqtida qayta ishslash va utilizatsiya qilish uchun olib chiqib ketilishini ta’minalash.

- Obyekt hududida har qanday chiqindi turlari yoqilishi ta’qilanganadi.

- O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 28 yanvardagi “Qurilish chiqindilar bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi №40-sonliqarori talablarini bajarish.

- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktabrdagi “Maishiy chiqindilar bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlarni samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi №787-qarori talablarini bajarilishi.

- Hosil bo’ladigan chiqindilarni temir konteynirli chiqindi to’plash qutilari vaqtincha to’plash va ruxsat etilgan axlatxonaga chiqarib yuborish ishlarni tashkil etish.

- Obyekt uchun ajratilgan yer maydoni bilan aholi yashash uylari vanoturar bino va inshoatlar orasidagi masofa, ShNQ talablarini hamda SanPinRUZ №0350-17 talablariga asosan oraliq masofani saqlash.

- Mazkur obyekt faoliyati yoki turi o’zgartirilgan taqdirda qaytadan ekologik ekspertizadan o’tkazish.

- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi va loyihadagi ma’lumotlar xaqqoniyligiga, to’g’riligiga korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasiga binoan, ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergen xulosasi, berilgan kundan e'tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega.

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'rsatilgan talablar buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga asosan bajarilishi shart.

**Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishini eslatib o'tamiz.**

#### **NAZORAT UChUN**

Mazkur inshootlarning qurilishi hamda faoliyati davrida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonun talablarini bajarilishini nazorat qilish vazifasi Mingbuloq tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi inspeksiyasi zimmasiga yuklatiladi.



Ma'sul ekspert: JO'RAYEV ISLAMBOY QAMBARALIYEVICH

## Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Davlat ekologik ekspertizasi markazining Namangan viloyat filialiga, Mingbulloq tumani, Mulkobod mahallasida GPON texnalogiyasi asosida OTAL tashkil etish uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta’sir ko’rsatilishi to’g’risidagi anketa” arizasi taqdim etilgan.

Tortilishi ko’zda tutilgan tarmoqni joylashgan xududning “Google Earth Pro” dasturi orqali olingan geoografik joylashuvi koordinatalari quyidagicha:

Boshlanish nuqtasi:

40°49'52,3556" shimoliy kenglik, 71°28'03,3771" sharqiy uzunlik;

Tugash nuqtasi:

40°49'51,1574" shimoliy kenglik, 71°28'07,9927" sharqiy uzunlik.

“O’zbektelekom” AKning 2024 yil 24 maydagi 67-son texnik topshirig’iga asosan, Mingbulloq tumani, Mulkobod mahallasida GPON texnalogiyasi asosida OTAL tashkil etish rejalashtirilgan.

Mingbulloq tumani, Mulkobod MFY, Mustaqillik ko’chasi xududida GPON tehnologiyasi asosida 330 metr 12 tolali OTAL tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Hududidagi va uning yaqinidagi daraxtlarni ko’chirilishi yoki kesilishi zaruriyatida belgilangan tartibda ruxsatnomalarini olgandan so’ngra, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi sohasidagi inspektsiyasining nazoratida bajarilishi shart. Mazkur davlat ekologik ekspertizasi xulosasi daraxtlarni kesish uchun ruxsatnoma bo’lib hisoblanmaydi.

Daraxtlarni kesish yoki butalash uchun belgilangan tartibda Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi boshqarmasining ruxsatnomasi olinishi zarur.

Ichimlik suvi tarmog’i tortish faoliyat davomida 4 nafar ishchi 1 kun faoliyat ko’rsatishi rejalashtirilgan. Ichimlik va maishiy maqsadlarida sarflanadigan suvni ichimlik suv tarmog’idan tashib keltirilishi rejalashtirilgan. Faoliyat davomida hosil bo’ladigan – 0,06 m<sup>3</sup>/davr miqdordagi oqava suvlar uchun 2 m<sup>3</sup> xajmli maxsus po’lat sig’imlar tashkil etilishi ko’zda tutilgan bo’lib, hosil bo’lgan oqava suvlarni sig’imning to’lishiga qarab, suv tozalash inshootiga chiqarilishi rejalashtirilgan.

Loyihaga muvofiq, mazkur faoliyat jarayonida quyidagi ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilari hosil bo’ladi: latta chiqindisi (xavflilik darajasi bo’yicha IV-toifa) – 0,009 t/yil, maxsus kiyim chiqindisi (xavflilik darajasi bo’yicha IV-toifa) – 0,0024 t/yil hamda qattiq maishiy chiqindilar (xavflilik darajasi bo’yicha V-toifa) – 0,0006 t/yil miqdorida hosil bo’ladi.

Loyihada barcha chiqindilarning hosil bo’lish manbalari yoritilib, ularning yillik miqdori, me’yorlari hisob-kitobi keltirilgan.

Har-bir chiqindi turi uchun uni vaqtincha saqlash joylarini va ularning keyingi harakatlari ekologik tadbirlarini ko’rib chiqish hamda chiqindi konteynerlarini o’rnatish uchun maxsus betonlangan maydonni tashkil etish shart.

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar hamda vujudga kelishi mumkin bo’lgan avariyalari holatlar, yong’in xavfsizligi va ularning oldini olish bo’yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan Davlat ekologik ekspertizasining tahliliy natijalariga ko’ra, ko’rib chiqish uchun taqdim qilingan “Atrof muhitga ta’siri to’g’risida bayonet” loyiha hujjatlari

amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni, Nizom hamda qonunosti ekologik me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Davlat ekologik ekspertizasi markazining Namangan viloyat filiali, Mingbuloq tumani, Mulkobod mahallasida GPON texnalogiyasi asosida OTAL tashkil etish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi anketa" arizasini **ma'qullaydi**.



Ma'sul ekspert: JO'RAYEV ISLAMBOY QAMBARALIYEVICH